

TALABALAR TAHLILINING O‘QUV JARAYONIDAGI ROLI


Xasanova Dilbar

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

O‘zbek va xorijiy tillar kafedrası


Dotsenti, PhD

Talablar tahlili kurs dizaynini shakllantirish uchun talabalardan olinadigan so‘rovnoma turi bo‘lib va u odatda “qanday qilib?” va “nimani?” kabi savollarga javob topish uchun olib boriladi. Bu jarayon davomli bo‘lib, darsni samaradorligini muntazam oshirib borish uchun pedagog talabalar xoxishi va talabini o‘rganib chiqadi. Bu so‘rovnomanini olib borishdan asosiy maqsad, talabani o‘rganish darajasidan tortib, uning taqdim etilayotgan fanni o‘qishdan maqsadi, samarali o‘qitish usullarigacha aniqlanadi. Ushbu tahlil natijalaridan kelib chiqqan holda, o‘quv reja, o‘quv materiallari, metodlar, assessment turlari, va baxolash jarayonlari belgilab olinadi. Ushbu jarayon tizimli jarayon bo‘lib, ketma-ketlikdan tashkil topadi [Ошибка! Источник ссылки не найден.]. Dudley-Evens va S.Jon esa ushbu fikrga qo‘shimcha qilgan holda, ular har biri aloxida jarayon bo‘lsa-da, ketma-ket sodir bo‘ladigan, o‘zaro ta’sirga va fidbekka ega bo‘lgan davriy tizim hisoblanadi, deb ta’rif beradi.



1 - rasm Dudley-Evens va S.Jon ta’riflagan talablar tahlili [Ошибка! Источник ссылки не найден.]

Источник ссылки не найден.]




2- rasm Talablar tahlilini o‘zaro bog‘likligi

Biz ham Evens va Jonning fikriga qo‘shilamiz, ammo darsni samarali tashkil etishda har bir jarayon alohida olib borilsa-da, uzviy bog‘lik degan xulosaga keldik. Zero, talablar tahlili talaba nimani bilish bilmasligini aniqlabgina qolmay, o‘qish jarayonini qay yo‘sinda davom etishini ham belgilab beradi.

Kompetentsiyaviy yondashuvga asoslanib tuzilgan **o‘quv dastur** (curriculum) va **silabus** Sadsombun[**Ошибка! Источник ссылки не найден.**] Korvan va Barmanlar [4] ning izohiga ko‘ra,

- a) dars maqsadlarini emas, unda rivojlantirilgan kompetensiya,
- b) faqat kontent emas, uning darsdagi samarasi,
- v) talabning darsdagi faolligi berilgan kriteriyaga asoslanishi,
- g) barcha mashqlar talabaga yo‘naltirilgan ta‘lim me‘yorlariga mos kelishi,
- d) formativ baxolash tizimini yo‘lga qo‘yishni ta‘minlaydi.

Oliy ta‘limda kompetent yondashuvga asoslanib tuzilgan o‘quv rejani ishlab chiqish uchun bitiruvchilar oldiga qo‘yilgan malaka talablari va kasbiy sifatlarni aniqlash, me‘yorlarni belgilash va baholash vositalarini ishlab chiqish talab etiladi. 2001 yil AQSh ta‘lim departamenti Voorheesning g‘oyasini qo‘llagan holda assessment tizimini ishdab chiqdi. Biz uning g‘oyasini kompetent yondashuvga asoslanib tuziladigan **o‘quv dasturni** amalga oshirish uchun ushbu ishchi modelni ishlab chiqishda asos qilib oldik.[**Ошибка! Источник ссылки не найден.**]



3- rasm **Konseptual o'qitish modeli**

Oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etilishi yuqoridagi kabi o'quv rejalarning amalda tatbiq etilishi bilan uzviy bog'liq. Zero ushbu o'quv reja talabalarning sillabusda ko'rsatib o'tiladigan o'quv yilining yakuniy natijasida erishiladigan amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishiga yordam beradi. Kompetent yondashuvga asoslanib tuzilgan o'quv rejani muvofiqlashtirishda ta'lim muassasasining roli ham mavjud. Turli xil tajriba va innovativ g'oyalarni amalga oshirishda Kouwenhoven ta'riflagan pedagogning mustaqil ishlashiga ruxsat berishi kutiladi. **[Ошибка! Источник ссылки не найден.]**

O'qish infratuzilmasiga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston respublikasi prezidentining "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" **[Ошибка! Источник ссылки не найден.]** gi farmonida belgilab berilgan "... Oliy ta'lim muassasalarida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startup, akselerator markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy-amaliy muassasalar darajasiga olib chiqish"[11] uchun, oliy ta'lim muassasalarining infratuzilmasida o'zgarishlar amalga oshirish zarur. Yuqori

sifatli infratuzilma dars jarayonidagi instruksiyalarning samaraliroq, talabalarning o‘quv yili yakunida erishadigan natijasiga erishiishda ko‘maklashuvchi va qolaversa semestr davomidagi past ko‘rsatkichlarni oldini oluvchi omil hisoblanadi. Britaniyaning University of Salford, University of Huddersfield, va Nutbox Consultancy muassalari olib borgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning akademik o‘zlashtirishining 16% ga oshishida infratuzilmadagi o‘zgarishlar sabab bo‘lgan. [Ошибка! Источник ссылки не найден.] Ushbu olib borilgan tadqiqotga ko‘ra, uchta faktor: tabiiylik (yorug‘lik, xavoning tozaligi), xonaning texnik jihatdan jihozlanishi va individualizatsiya (o‘quv jihozlarining dars xonasida yetarlicha joy bo‘lishi: moslashuvchanligi). Mamlakatimizda ham oliy ta‘lim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasini, shu jumladan xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag‘larini keng jalb qilish hisobiga yaxshilash, ularni bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish va moliyaviy barqarorligini ta‘minlash chora tadbirlari olib borilmoqda[Ошибка! Источник ссылки не найден.].

FOYDALANGAN ADABIYOT RO‘YHATI:

1. Alexander, L., & Moore, M. (2016). Deontological ethics. *The Stanford Encyclopedia of Philosophy*.
2. Audi, R. (2011). *Moral perception and moral knowledge*. Oxford University Press.
3. Dilbar, K. (2024). The influence of religious beliefs on moral decision-making: a dual process perspective. *Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research*, 2(5), 27-30.
4. Dilbar, K. (2024). The principles of deontological ethics. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 2(5), 56-59.
5. Esposito, J. L. (2005). *Islam: The straight path*. Oxford University Press.
6. Fasching, D. J., & deChant, D. M. (2011). *Comparative religious ethics: A narrative approach to global ethics*. Wiley-Blackwell.

7. Jamalova, G., Aymatova, F., Khasanova, D., & Shamsematova, B. (2023, December). A systematic mapping study of leveraging Intelligent Systems Applications in human capital development: In the example of developing professional communicative competence of economics students in English. In Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems (pp. 19-24).
8. Kamali, M. H. (2003). *Principles of Islamic jurisprudence*. Islamic Texts Society.
9. Khasanova, D. (2019). Does the way of assessing affect the result of testing?“. In Trends in Teaching Foreign Language: achievements and Solutions” International Conference (pp. 84-85).
10. Khasanova, D. (2023). Enhancing english language teaching for islamic studies students: a focus on curriculum design. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(12), 190-195.
11. Khasanova, D., Ulmasbaeva, M., & Ikanova, L. (2019). IT IS TIME TO CHANGE THE SUBJECT MATTER OF ENGLISH AT VOCATIONAL COLLEGE. *EPRAInternational Journal of Multidisciplinary Research*, 48-52.
12. Klostermaier, K. K. (2007). *A survey of Hinduism*. State University of New York Press.
13. Koller, J. M. (2004). *Asian philosophies*. Prentice Hall.
14. Küng, H. (2004). *Global responsibility: In search of a new world ethic*. Wipf and Stock Publishers.
15. Lewis, C. S. (2001). *Mere Christianity*. HarperCollins.
16. Neusner, J. (2004). *The way of Torah: An introduction to Judaism*. Thomson Wadsworth.
17. Shamsematova, B. (2023). Isomorphic and allomorphic peculiarities of the lexeme" value" in the linguistic and cultural aspect (in the example of english and uzbek works). *образование наука и инновационные идеи в мире*, 35(8), 99-103.

18. Sharma, A. (2011). *Hindu ethics: Purity, abortion, and euthanasia*. State University of New York Press.